

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEKISTON ETNOLOGIYASI: AN‘ANALAR VA
INNOVATSIYALAR”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**



Toshkent 2022 yil

Tahrir hay'ati:

1. t.f.f.d. (PhD). A.D. Bababekov
2. t.f.d (DSc).B.M. Ubaydullayeva
3. t.f.n, katta ilmiy xodim A.R. Qayumov
4. t.f.n, katta ilmiy xodim I.M. Xo'jaxonov
5. t.f.f.d. (PhD) N.N. Narziyev
6. t.f.f.d. (PhD). S.M. Anarkulov
7. Sh.M. Abdusatorov
8. T.G'. Babarahimov
9. R.H. Abduzohirov
10. K.R. Abduraxmonova

Taqrizchilar:

1. t.f.d. prof. A.A.Ashirov
2. t.f.d. S. T. Davlatova

Mualliflar keltirilgan statistik va boshqa ma'lumotlar uchun mas'uldirlar. Mazkur to'plam Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti Kengashining 05.2022 yildagi 3–sonli majlisi qarori va tarix fakulteti “Antropologiya va etnologiya” kafedrasining 26.05.2022 yildagi 19–sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy
universiteti
2022 yil

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, XIX – XX asr boshlarida yashagan mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar Xiva xonligi, xususan qo‘ng‘irotlar sulolasi tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asarlarda xonlikdagi amaldagi boshqaruv tartiblari, mansablar, ijtimoiy munosabatlar, diplomatik va savdo aloqalari, yer egaligi, soliq tizimi, aholining etnik kelib chiqishi hamda tarkibi xususida qimmatli ma‘lumotlar bayon etilgan.

BUXORO AMIRLIGINING TUGATILISHI - SOVET HOKIMIYATI MUSTAMLAKACHLIK SIYOSATI.

Guliruxsor Temirova.

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchi,

1920-yil fevralda Xiva xonligi bosib olinganidan keyin qizil armiya qo‘shinlari Buxoro amirligi sari yuzlandilar. 1920-yil may oyi boshlarida Moskvaga kelgan Turkkomisiya a‘zolari Sh.Eliava va Rudzutak RSFSR tashqi ishlar vazirligi G.V.Chicheringa “Turkkomisiya ertagayoq Buxoro amirligining mustaqilligini bekor qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi”, degan bayonotini topshirdi. 1920-yil 22-mayda RKP(b) MK byurosi Buxoroga hujum qilish to‘g‘risidagi Turkkomisiya a‘zolarining ushbu fikrini ma‘qulladi¹. Turkiston fronti qo‘shinlarining qo‘mondoni M.V.Frunze Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarni tezlashtirishni so‘rab 1920-yil 31-iyulda V.Leninga telegramma jo‘natadi. RSFSR qurolli kuchlaribosh qo‘mondoni S.Kamenev bu telegrammaga “qulay fursatda boshlashga ruxsat beriladi”, deb qisqa javob yuboradi.

1920-yil 12-avgustda Frunze amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro frontini tuzish haqida buyruq beradi. SHu tariqa amirlik chegaralariga 7 ming piyoda, 2,5 ming otliq askar, 5 og‘ir to‘p, 35 engil to‘p, 206 zambarak, 5 broneavtomobil, 5 bronepoezd va 11 aeroplan shay holatga keltirib qo‘yilgan. Amir Olimxon ixtiyorida 15 ming sarboz, 55 eski to‘p va 12 pulemyot bor edi, xolos. 16-18-avgustda Chorjo‘yda Buxoro kommunistlarining IV-sezdi bo‘lib², u amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bolsheviklarning rejaları amalga osha boshlaydi. Tarixda “yalpi qo‘zg‘olon” deb atalgan harakat 1920-yil 23-avgustda Beshim Sardor boshchiligidagi yollanma turkman otliqlarining Chorjo‘y yaqinidagi Saqor bozorini ishg‘ol qilishi bilan boshlangan. Beshim Sardor va Chorjo‘y kommunistlari Eski Chorjo‘yni ishg‘ol qilib, yuzdan ortiq amaldorni qamoqqa olishadi. Ilgaridan o‘ylab qo‘yilgan rejaga ko‘ra, shu kuni Chorjo‘y revkomi “Butun Buxoro xalqi nomidan” Turkiston frontiga yordam so‘rab murojaat qiladi., Vaholanki, Buxoro xalqi s‘ezd qaroridan ham, Beshim Sardor isyonidan ham bexabar edi. Buxoro taqdiri qizil qo‘shin ixtiyoriga topshirilgandi.

Frunze “yordam” to‘g‘risidagi murojaatni olgach, qo‘shinlarini 4 ta zarbdor guruh (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Chorjo‘y va Kogon)ga bo‘lgan.

¹ To‘rayev H. Buxoro tarixi / O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2020. - B. 165.

² Наимов Н. Амирнинг хазинаси. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005.

Samarqand guruhi 29-30-avgustda Shahrizabz-Kitob yo‘nalishi bo‘ylab harakat qilib, Qarshi va G‘uzorni egallashi, Kattaqo‘rg‘on guruhi Xatirchi, Ziyovuddin va Karmanani olishi, Chorjo‘y guruhi esa eski Chorjo‘yni egallab, Amudaryoning Afg‘oniston bilan chegaralarini nazorat qilishi, Forob va Qorako‘lni egallab, qo‘shimcha buyruqni kutib turishi lozim edi. Asosiy vazifa Kogon guruhi zimmasiga yuklandi. U Buxoroni egallashi, amir Olimxonni asir olishi va arkdagi xazinani egallashi kerak edi¹.

1920-yildan boshlab Buxoro ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilindi. Buxoroning Qarshi darvozasigacha tortib kelingan temir yo‘lda turgan bronepoyezd va Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to‘plardan 1-2- sentyabr kunlari shaharga 12 ming snaryad tashlandi. 11 ta aeroplan esa shahar ustiga 3kun bomba yog‘diradi². Shaharning Qarshi va Samarqand darvozalari tagiga 800 kilogrammdan ortiq porox ko‘milib portlatiladi. Qulab tushgan darvozalardan qizil askarlar shaharga bostirib kiradilar. Ko‘cha janglari boshlanib ketib Amir Olimxon shaharni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Sho‘ro aeroplanlari uni qidirib topish bahonasida shahar atrofidagi qishloqlarni, tarixiy obidalarni, Sitorai Mohi Xossani bombardimon qiladi. 2- sentyabrda qizil askarlar arkni egallaydilar. Shafqatsiz o‘q yomg‘iri va bombardimon natijasida shahar obidalarining 5/1 qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo‘ladi.

O‘sha davr voqealarining bevosita shohidi bo‘lgan Muhammad Ali Baljuvoni o‘zining “Tarixi Nofeyi” asarida qizil askarlar tomonidan qilingan bosqin oqibatlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Buxoroni bosib olish natijasida 34 guzar, 3 mingdan ortiq do‘kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo‘ldi. Minorai Kalonga ham zarar etib, Olimxon madrasasi, Mir Arab madrasasi yonib ketdi. Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O‘g‘lon darvozasi, Masjidi kalon, Zindondan To‘qimdo‘ziy hammomigacha, minora ostidan to So‘zangaron dahasi, Gul bozor, Lattafurushlar rastasi, registondan to Puli oshiqonning boshigacha batamom yonib ketdi³. Qarshi darvozasi ham yonib ketdi. shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib kul bo‘ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo‘lganini hech bir tarix ko‘rmagan edi”.

Buxoroliklar bu kunlarni “kichik qiyomat” deb atashgan. Shaharga kirgan qizillar arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qushbegi va boshqa amaldorlarning mulkini musodara qilishgan. Askarlar va qo‘shin rahbarlari katta boylik orttirganlar. Turkiston inqilobiy-harbiy byuro “uchligi”ning a‘zosi A.Mashitskiyning 1920-yil sentyabrda Leninga yozgan ma‘lumotnomasida shahar markazi yakson qilinganligi, registon va ark yondirilganligi, ark yerto‘lalaridagi va omborxonalaridagi boyliklar oltin, kumush talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergan. Sentabr oyining boshlarida amirlik xazinasini va boshqa boyliklar ortilgan 2 eshelon yuk Toshkent

¹ Наимов Н. Амирнинг хазинаси. – Бухоро: “ Бухоро” нашриёти, 2005.

² Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих) / Тожиқ тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Т.: Академия нашриёти, 2001. – 121 бет.

³ То‘rayev Н. Бухоро тарихи / О‘quv qo‘llanma. – Бухоро, 2020. - В. 165.

orqali Moskvaga yo‘l oladi. Qariyb 15-sentabrgacha davom etgan Buxoro talanishining guvohi bo‘lgan Turkkommissiya vakili G.Safarov o‘z xotirasida: “Buxoroga kelgan qizil qo‘shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug‘ullandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar”¹, deb yozgandi.

Buxorodan so‘ng qizillar amirlik tarkibidagi 27 beklikni ham birin-ketin egallab, Buxoro amirligiga barham berishadi va uning hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuziladi. 1920-yil 6-8-oktabrda amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi - BXSР tuzilganligi e‘lon qilinadi. Sobiq yosh buxorolik jadidlardan iborat Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tashkil topib, uning raisi etib Fayzulla Xo‘jayev tayinlandi².

XX ASRDA KOREYADA ARXIV ISHI FAOLIYATIGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR (ISLOHOTLAR, TIZIMLASHTIRISH VA TARAQQIYOT JARAYONLARI)

Jonizoqov Fazliddin
**O‘zMU Tarix fakulteti “Hujjatchilik,
hujjatshunoslik va arxivshunoslik” yo‘nalishi**
II bosqich magistranti

Koreyaning arxiv tizimi XX asrning 50-yillaridan boshlab, ya'ni Yapon mustamlakasidan ozod qilinganidan keyin zamonaviy ma'noda shakllana boshladi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy boshqaruvi haqida gapirganda, uning mintaqaviy bo‘linishini ta’kidlash kerak, bu qisman topografik xilma-xillik va tarixiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi.

Koreya Respublikasi arxiv xizmatini modernizatsiya qilish mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlari bilan yaqin aloqada bo‘ldi. Arxiv ishi, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, Records Management (hujjatlarni boshqarish) deb ataladi. Bugungi kunda Koreya Respublikasida 9 ta viloyat - Kanvondo, Kensan - Namdo, Kensan - Pukto, Chejudo, Cholla - Namdo, Cholla - Pukto, Chxunchxon - Namdo, Chxunchxon - Pukto va 138 ta tuman mavjud³. Maxsus maqomga ega bo‘lgan shaharlar - Koreya Respublikasining poytaxti Seul, viloyat maqomidan ma'muriy jihatdan ustun bo‘lgan, shuningdek, 6 metropoliten shaharlari teng maqomga ega.

Koreya arxiv ishini shakllantirish va rivojlantirish masalalarini o‘rganish keyingi davrda 4 ta tarixiy bosqichni ajratish imkonini beradi:

1-bosqich. 1950-yillar tadbirkorlar faoliyatini, soliq siyosatini va Yaponiya tomonidan Koreya bosib olingan paytdan boshlab yaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik turli masalalarni aks ettirgan tarixiy hujjatlarni tizimli yig‘ishning dastlabki davri.

¹ Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих) / Тожиқ тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Т.:Академия нашриёти, 2001. – 121 бет.

² Ражабов Қ. Файзулла Хўжаев (тарихий эссе). Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011. – 47 бет.

³ Chai-sik Chung. A Korean Confucian Encounter with the Modern World: Yi Hang-no and the West, 1995

| | | |
|----------------------------------|---|---------|
| Юсупова Г. | Фарғона иқтисодий районида енгил саноат: ривож ва муаммолари (XX аср 50-70 йиллар) | 194-199 |
| Рахматова Н.М. | Мустақиллик йиллари Навоий вилоятида касаначилик ва қўл меҳнати | 200-203 |
| Islomov D. | Abdurauf Fitrat va uning “Rahbari najot” asari haqida | 204-207 |
| Beshimov M. | Mang’itlar sulolasi davrida qurilgan tarixiy yodgorliklar | 208-209 |
| Абдуллаева Н.А. | Садриддин Айнийнинг “Эсдаликлар” асари муҳим тарихий манба сифатида | 210-212 |
| Samadova H.M. | Sharifjon Maxdum Sadri Ziyoning ilmiy merosi | 213-216 |
| Jamolova D.M. | Muhammad Munshiy va uning “tarixi Muqimxoniy” asari haqida | 217-220 |
| Safoyeva Sh. Raximova S.G`. | Toshkent shahar markaziy davlat arxivi – shahar tarixini o‘rganishda asosiy manba sifatida | 221-223 |
| Elboyev F. X. | Quruqsoy qishlog`ining tarixi va etnografiyasiga doir ba’zi ma’lumotlar | 224-227 |
| Bo`stonova Z. | Mirzo Salimbekning “Kashko`li Salimiy” asarida Buxoro elchisining donoligi haqida | 228-230 |
| Qilichev O.A., Ismoilov Sh.I. | Buxoro o`lkashunoslik muzeyi – rivojlanish bosqichida | 231-232 |
| Iumaiyev R.G`., Jo`rayev I.I. | Buxoro davlatchiligi tarixida mang`itlar sulolasining hokimyat tepasiga kelishi. | 233-236 |
| Jumayev G`.I. | G`iyosiddin Xondamirning «habib us-siyar fi axbori afrodi al-bashar» asarining tarixshunosligi | 237-239 |
| Kalbayeva U. J | Amudaryo bo‘limining tashkil topishi va uning ma’muriy-hududiy tuzilishi | 240-241 |
| Nafasofa D.N. | XIX asrning ikki yarmi – XX asr boshlarida Sirdaryo viloyatining hududi va iqtisodiy hayotiga oid ba`zi mulohazalar | 242-244 |
| Raxmanova M.Sh | Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar sulolasi davri manbashunosligiga doir ayrim mulohazalar | 245-247 |
| Temirova G. | Buxoro amirligining tugatilishi - sovet hokimiyati mustamlakachlik siyosati. | 248-249 |
| Jonizoqov F. | XX asrda Koreyada arxiv ishi faoliyatiga doir | 250-252 |